

Farg'ona shahar hokimligida 2022-yil davomida "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror, farmoyishlari va topshiriqlari, Hukumat hamda viloyat hokim

Farg'ona shahar hokimligida, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmonlari, qarorlari, farmoyishlari, Hukumat, viloyat hokimligining qaror va farmoyishlari asosida shahar hokimligida ishlab chiqilgan qaror hamda farmoyishlar, shu bilan birga, yuqori idoralardan kelib tushgan topshiriq va mahalliy idoralardan kelib tushgan aloqa xatlari bilan ishlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 12-yanvardagi "Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida"gi 12-sonli va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1999-yil 29-martdagi "O'zbekiston Respublikasi Davlat hokimiyati va boshqaruv organlarida ish yuritish va ijro intizomini tashkil etish bo'yicha normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida"gi 140-sonli qarorlari hamda O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlari to'g'risida"gi Qonuni talablari ijrosini ta'minlash maqsadida 2022-yil davomida kelib tushgan barcha turdagi hujjatlar natijasi tahlil qilindi. Farg'ona shahar hokimligiga kelib tushgan murojaatlar (hujjatlar) o'z muddatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-fevral kungi "Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6166-sonli Farmoni (ijrosini ta'minlash maqsadida Farg'ona shahar hokimining 2021-yil 19-fevral kungi 72-sonli qarori qabul qilingan) hamda 2021-yil 31-may kungi "IJRO.GOV.UZ" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlashga qaratilgan qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-5132-sonli qarorida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida "IJRO.GOV.UZ" ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi orqali belgilangan tartibda ro'yhatga olindi hamda bajarilishi ustidan kunlik monitoring yuritilib, bajarish muddatlari bo'yicha bir kun oldin ijrochilarga shahar hokimligining telegram ijtimoiy tarmog'idagi "Ijro intizomi" guruhi va mas'ul ijrochining shaxsiy akkauntlari orqali eslatmalar kiritildi. 2022-yil davomida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari hamda Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari ijrosi yuzasidan qabul qilingan Farg'ona viloyati hokimining qaror va farmoyishlari ijrosini ta'minlash maqsadida Farg'ona shahar hokimligi tomonidan jami 423 ta (2021-yilning shu davrida 551 ta) hujjat ro'yxatga olingan. Jumladan, - O'zbekiston Respublikasi Qonunlari - 59 (65) ta;- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni - 36 (65) ta;- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari - 129 (163) ta;- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmoyishi - 1 (5) ta;- O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlar - 198 (253) ta. Mazkur qaror va farmoyishlarning ijrosini ta'minlash maqsadida Farg'ona shahar hokimligida jami 402 (522) ta hujjat, shundan, 123 (168) ta qaror, 9 (7) ta farmoyish, 270 (347) tasi tegishliligi bo'yicha ijrosini ta'minlash choralari ko'rish uchun mas'ul bo'lgan qo'yi bo'limlarga yetkazish yuzasidan topshiriq xatlari hamda 21 (29) ta ma'lumot va ish jarayonida foydalanish uchun qabul qilindi. Farg'ona viloyati hokimligi hamda boshqa yuqori turuvchi idoralar tomonidan ijro uchun yuborilgan (nomenklaturasi -01-28 va -01-32-xdfu) jami 4 191 ta (3 543 ta) topshiriq xatlari hamda mahalliy tashkilotlar va huquq tartibot organlaridan kelib tushgan (nomenklaturasi -01-30 va -01-31) jami 2 084 (2 601) ta hujjatlar (aloqa xatlari, taqdimnomalar va boshqalar) belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilib ijro uchun tegishli mutaxassislariga yetkazildi va natijasi to'g'risida o'z muddatida xat mualliflariga javob qaytarildi. 2022-yil mobaynida Farg'ona shahar hokimligiga jismoniy va yuridik shaxslardan jami 8 774 ta (o'tgan 2021-yilning shu davrida 12 615 ta) murojaatlar kelib tushgan. Shu o'rinda qayd etib o'tish lozimki, murojaatlar o'tgan 2021-yilning shu davriga nisbatan 3 841 taga ya'ni 30,4 %ga kamaygan. Farg'ona shahar hokimligida joriy yil davomida ro'yxatga olingan jami 8 774 ta (o'tgan 2021-yil davomida 12 615 ta) jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarni kelib tushgan yo'nalishlari (kanallari) bo'yicha tahlil qilinganda:- O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual va Xalq qabulxonalari orqali kelib tushgan murojaatlar - 2 321 ta 26,5% (4 112 ta 32,6 %); - Farg'ona viloyati hokimligi va boshqa yuqori turuvchi davlat idoralaridan ko'rib chiqish uchun yuborilgan (nomenklaturasi -01-39) murojaatlar - 627 ta 7,1 % (o'tgan 2021-yilning shu davrida 1 279 ta 10,1 %);- Farg'ona shahar hokimligiga to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan (nomenklaturasi -01-40) murojaatlar - 2 581 ta 29,1% (3 891 ta 31,1%); - Farg'ona shahar hokimi tomonidan o'tkazilgan ommaviy, sayyor va shaxsiy qabullar davomida kelib tushgan murojaatlar - 3 244 ta ya'ni 37,0% (4 613 ta 36,6%)ni tashkil etadi. Ushbularni murojaat shakllari bo'yicha tahlil qilinganda:- shikoyatlar soni - 495 ta ya'ni 6 foiz;- takliflar - 14 ta yani 0,16 foiz;- arizalar - 8 265 ta yani 94 foizni tashkil etadi. Mazkur murojaatlarni sohalar kesimida tahlil qilinganda:- uy-joy (orderli va kredit asosida) va yotoqxonadan joy ajratish masalasida 2 081 ta 23,7% (3 884 ta 30,8%);- moddiy yordam ajratish masalasida 1 563 ta 17,8 % (2 106 ta 16,7%);- uy-joy qurish uchun yer ajratish masalasida 35 ta 0,4 % (442 ta 3,5 %);- ko'chalarni ta'mirlash masalasida 372 ta 4,2% (732 ta 5,8 %);- tadbirkorlik uchun yer ajratish masalasida 24 ta 0,3 % (282 ta 2,2%);- obodonlashtirish masalasida 47 ta 0,5% (89 ta 0,7%);- qurilish masalalarida 91 ta 1,0 % (795 ta 6,3%);- tadbirkorlik masalasida 221 ta 2,5 % (202 ta 1,6 %);- ish haqqi va ishga joylashtirish masalasida 205 ta 2,3% (437 ta 3,5%);- bank krediti masalasida 94 ta 1,1%

(281 ta 2,2%);- sog'liqni saqlash masalasida 269 ta 3,1% (101 ta 0,8%);- elektr va gazlashtirish masalalarida 61 ta 0,6% (75 ta 0,6%);- uylarni ta'mirlash masalasida 182 ta 2,1% (260 ta 2,1%);- MFYga oid masalasida 19 ta 0,2% (49 ta 0,4%);- boshqa turli masalalarda 2736 ta 31,2% (2 493 ta 19,8%)ni tashkil etdi.- voyaga yetmaganlar komissiyasiga kelib tushgan 784 ta 8,9% (387 ta 3,1%); Mazkur murojaatlar sektorlar kesimida tahlil etilganda:- 1-sektordan 3 007 ta 34,3 % (3 866 ta 30,6 %);- 2-sektordan 2 236 ta 25,5 % (3 300 ta 26,2 %);- 3-sektordan 2 095 ta 23,9 % (2 686 ta 21,3 %);- 4-sektordan 1 297 ta 14,8 % (2 319 ta 18,4 %)ni tashkil etdi, shuningdek, boshqa shahar va tumanlardan 139 ta 1,6% (444 ta 3,5%) turli murojaatlar kelib tushgan. Kelib tushgan murojaatlarning 4 808 ta 54,8 % (5457 ta 43,3 %) murojaat ijobiy hal etildi, 2 763 ta 31,5 % (4 887 ta 38,7 %) holatda huquqiy ma'lumot berish orqali hal qilingan, 1 184 ta 13,5 % (2 197 ta 17,4 %) holatda aholi va tadbirkorlik subyektlariga tushuntirishlar berildi, 19 ta 0,2 % (74 ta 0,6 %) holatda murojaatlar anonim deb topilgan xamda ko'rmasdan qoldirilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual va Xalq qabulxonalariga kelib tushgan jami 2 321 ta (o'tgan 2021-yilning shu davrida 4 112 ta, farqi 1 791 taga yoki 43,6%ga kamaygan) murojaatlarni masalasi bo'yicha taxlil qilinganda:- uy-joy (orderli va kredit asosida) va yotoqxonaga ajratish masalasida 1097 ta 47,3% (1532 ta 37,3%);- moddiy yordam ajratish masalasida 526 ta 22,7% (925 ta 22,5 %);- uy-joy qurish uchun yer ajratish masalasida 8 ta 0,3% (106 ta 2,6%);- ko'chalarni ta'mirlash masalasida 312 ta 13,4% (627 ta 15,2%);- tadbirkorlik uchun yer ajratish masalasida 7 ta 0,3 % (146 ta 3,6%);- boshqa turli masalalarda 371 ta 16,0% (776 ta 18,9%) tashkil etdi. Ushbu murojaatlarning sektorlar kesimida tahlil qilinganda:- 1-sektordan 844 ta 36,4% (1238 ta 30,1%);- 2-sektordan 646 ta 27,8% (1134 ta 27,6%);- 3-sektordan 461 ta 19,9 % (920 ta 22,4 %);- 4-sektordan 288 ta 14,2% (676 ta 16,4%)ni tashkil etdi, shuningdek, boshqa shahar va tumanlardan 82 ta 3,5% (144 ta 3,5%) turli murojaatlar kelib tushgan. Mazkur murojaatlarning 53 ta 2,3% (272 ta 6,6%) holatda aholi va tadbirkorlik subyektlariga tushuntirishlar berilgan, 807 ta 34,8 % (1083 ta 26,3%) holatda huquqiy ma'lumot berish orqali hal qilingan, 1442 ta 62,1% (2683 ta 65,2%) holatda ijobiy hal qilindi, 19 ta 0,8% (74 ta 1,8%) holatda murojaatlar anonim deb topilgan hamda ko'rmasdan qoldirildi. 2022 yil mobaynida Farg'ona viloyati hokimligi va boshqa yuqori turuvchi davlat idoralari tomonidan ko'rib chiqish uchun yuborilgan hamda Farg'ona shahar hokimligiga to'g'ridan-to'g'ri kelib tushgan jismoniy va yuridik shaxslarning jami 3 209 ta (o'tgan 2021-yilning shu davrida 3 890 ta, farqi 681 taga yoki 17,5%ga kamaygan) murojaatlari masalasi bo'yicha taxlil qilinganda:- uy-joy (orderli va kredit asosida) va yotoqxonaga ajratish masalasida 657 ta 20,5% (1171 ta 31,8%);- moddiy yordam ajratish masalasida 301 ta 9,4 % (153 ta 3,9 %);- uy-joy qurish uchun yer ajratish masalasida 27 ta 0,8% (336 ta 8,6%);- ko'chalarni ta'mirlash masalasida 60 ta 1,9% (105 ta 2,7%);- tadbirkorlik uchun yer ajratish masalasida 17 ta 0,5% (136 ta 3,5%);- qurilish masalasida 49 ta 1,5% (542 ta 13,9%);- tadbirkorlikni rivojlantirish masalasida 54 ta 1,7% (131 ta 3,4%);- ish haqi va ish bilan ta'minlash masalalarida 76 ta 2,4% (124 ta 3,2%);- voyaga yetmaganlar komissiyasiga kelib tushgan 784 ta 24,4% (387 ta 9,9%);- boshqa turli masalalarda 1184 ta 36,9% (805 ta 20,7%)ni tashkil etdi. Ushbu murojaatlarning sektorlar kesimida tahlil qilinganda:- 1-sektordan 1054 ta 32,8% (1147 ta 29,5%);- 2-sektordan 787 ta 24,5% (845 ta 21,7%);- 3-sektordan 842 ta 26,2% (956 ta 24,6 %);- 4-sektordan 495 ta 15,4% (659 ta 16,9%) tashkil etdi, shuningdek, boshqa shahar va tumanlardan 31 ta 1,0 % (283 ta 7,3%) turli murojaatlar kelib tushgan. Mazkur murojaatlarning 1131 ta 35,2% (1925 ta 49,5%) holatda aholi va tadbirkorlik subyektlariga tushuntirishlar berilgan, 725 ta 22,6% (1053 ta 27,1%) holatda huquqiy ma'lumot berish orqali hal qilingan, 1353 ta 42,2% (912 ta 23,4%) holatda ijobiy hal qilindi. Shu bilan birga, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 08-yanvardagi "Hududlarni kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha sektorlar faoliyatini yanada takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4102-sonli qarori hamda Farg'ona viloyati hokimining 2020-yil 19-dekabr kungi 409-f-sonli farmoyishi, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2021-yil 23-iyul kuni "Aholi murojaatlari bilan ishlash tizimini mutlaqo yangicha tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi videosektor yig'ilishida belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlash maqsadida Farg'ona shahar Xalq qabulxonasi bilan kelishgan holda Farg'ona shahar hokimi tomonidan tasdiqlangan jadvallar asosida jismoniy va yuridik shaxslar bilan shahar hududida jami 42 marotaba o'tkazilgan ommaviy, sayyor va shaxsiy qabullar davomida jami 3 244 (2021-yil davomida 4 613 ta, farqi 1369 taga yoki 29,7%ga kamaygan) murojaat kelib tushdi. Shu o'rinda qayd etib o'tish lozimki, qabullar davomida jismoniy va yuridik shaxslarni qiynab kelayotgan 655 ta yoki qarib 20,2 foizga yaqin muammolar joyida (moddiy yordam ajratish, ijara to'lovlarini to'lab berish, davolanish uchun mablag' ajratish, tavsiya va huquqiy ma'lumot berish hamda h.k yo'llari orqali) ijobiy hal qilingan. Mazkur murojaatlarni sohalar kesimida tahlil qilinganda:- bank krediti masalasida 94 ta 2,9% (281 ta 6,1%);- ish haqqi va ishga joylashtirish masalasida 129 ta 4,9% (313 ta 6,8%);- moddiy yordam masalasida 736 ta 22,7% (1028 ta 22,3%);- uy-joy olish masalalarida 327 ta 10,1% (1181 ta 25,6%);- uylarni ta'mirlash masalasida 182 ta 5,6% (260 ta 5,6%);- obodontashtirish masalasida 47 ta 1,4% (89 ta 1,9%);- qurilish masalasida 42 ta 1,3% (253 ta 5,5%);- elektr va gazlashtirish masalalarida 51 ta 1,6% (75 ta 1,6%);- sog'liqni saqlash masalasida 269 ta 8,3% (101 ta 2,2%);- MFYga oid masalasida 19 ta 0,6% (49 ta 1,1%);- tadbirkorlikni rivojlantirish masalasida 167 ta 5,1% (71 ta 1,5%);- boshqa turli masalalarda 1181 ta 36,4% (912 ta 20,2%)ni tashkil

etdi. Ushbu murojaatlarning sektorlar kesimida tahlil qilinganda:- 1-sektordan 1109 ta 34,2 % (1481 ta 32,1%);- 2-sektordan 803 ta 24,8 % (1321 ta 28,6%);- 3-sektordan 792 ta 24,4 % (810 ta 17,6 %);- 4-sektordan 514 ta 15,8% (984 ta 21,3%) ni tashkil etdi, shuningdek, boshqa shahar va tumanlardan 26 ta 0,8% (17 ta 0,4%) turli murojaatlar kelib tushgan. Kelib tushgan jami murojaatlardan 2013 ta 62,1% (1862 ta 40,4%) holatda ijobiy xal etildi, 1231 ta 37,9% (2751 ta 59,6%) holatda huquqiy tushuntirish berish orqali hal qilindi. 2022 yil davomida Farg'ona shahar hokimligi Devonxona bo'limi tomonidan Kadastr agentligi Farg'ona shahar bo'limi, Uy-joy bo'limi, Maktabgacha ta'lim bo'limi hamda Mahalla va Nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limlarida murojaatlar bilan ishlash, ish yuritish va ijro intizomiga rioya qilish holati nazorat tartibida o'rganib chiqilib, aniqlangan kamchiliklar yuzasidan tegishli hujjatlar rasmiylashtirilgan hamda qayd etilgan kamchiliklarni bartaraf etish yuzasidan tegishli ko'rsatma va takliflar berilgan. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmon, qaror va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari ijrosini ta'minlashda hamda muddati o'tib bajarilgan murojaatlar bo'yicha ijro intizomi qoidalari buzilishiga yo'l qo'yib, o'z vazifasiga mas'uliyatsizlik bilan qaragan shahar hokimligi apparatidan 3 nafar xodimga nisbatan "Xayfsan" e'lon qilindi hamda 1 nafar xodimga nisbatan oylik ish haqqining 20 foizi miqdorida "jarima" intizomiy jazo chorasi qo'llanildi

2023-01-12 19:17:13